

## RESPUBLIKAMIZDA TASHKIL ETILGAN AXBOROT-KUTUBXONA MUASSAALARI

*Rajabova Noila Murodjon qizi*

*Termiz Davlat Universiteti*

*Kutubxona axborot faoliyati yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda joylashgan axborot-kutubxona muassasalari, ularni tashkil etilgan vaqtlari, tashkil etilgandan buyon olib borayotgan faoliyatlar, ularga davlat miqyosida berilayotgan e'tibor va chiqarilgan qonunlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Axborot -kutubxona muassasalari, Toshkent viloyat axborot-kutubxona markazi, Samarcand viloyat axborot-kutubxona markazi, Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi, Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi, Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi, Namangan viloyat axborot-kutubxona markazi, Xorazm viloyat axborot-kutubxona markazi, Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi, Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi, Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi, Navoiy viloyat axborot-kutubxona markazi.

Insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida insoniyatni tarbiyalash uchun, ularning aqliy salohiyatini rivojlanishi uchun kitob juda muhim rol o'yaydi. Kitoblar va kishilik jamiyati tarixi yig'indisi bo'lgan kutubxona insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo'yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat'iy nazar adabiyotlar to'plangan. Bugungi kunda axborot resurslari kutubxonalarda yig'ilgan. 2006-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qilingan. Aynan shu qaror mamlakatimiz kutubxonachilik sohasida axborot va telekommunikatsiya texnologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng yo'l ochib berdi.

### Toshkent viloyat axborot-kutubxona markazi

Toshkent jadidchilarining "Turon" ma'rifiy jamiyati qoshida 1913-yili Toshkent viloyat ilmiy-universal kutubxonasi barpo etildi. Ilmiy-universal kutubxona 1918-yildan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritgan. 1992-yil ilmiy-universal kutubxonaga "Turon" nomi berilgan. 1997-yilda bu kutubxona faoliyatida yangi bosqich boshlandi va bu kutubxona ish jarayonlarida avtomatlashtirishni yo'lga qo'yish, homiyarlarni jalb etgan holda xorijiy kutubxonalar bilan hamkorlik ishlari olib borildi. Shu yillardan boshlab respublikaning 10 ta kutubxonasi qatorida bu kutubxonada ham "IRBIS" dasturi asosida elektron katalog tuzila boshlandi. 2006-yil 20-iyunda sobiq Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarordan so'ng bu kutubxona

negizida Toshkent viloyat “Turon” axborot-kutubxona markazi tashkil topdi. Hozirgi kunda “Kutubxonaga kitob sovg'a qiling!” mavzusida xayriya marafonini o’tkazish an’ana tusini olgan va unda ko’plab taniqli olimlar, shoirlar, olimlar o’zlarining kitoblarini sovg'a qilish bilan ishtirok etmoqda.

### **A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi**

Taniqli arxeolog V.L.Vyatkin tashabbusi bilan polkovnik G.A.Brejezitskiy, agronom Y.N.Grushanovskiy, Y.M.Volnev va boshqalar yordami bilan 1911-yil 6-dekabrda Samarqandda shahar ommaviy kutubxonasi ochildi. Kutubxonaning dastlabki fondi 2 ming nusxaga yaqin adabiyotlardan iborat edi.

Keyinchalik O’zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 1937-yil ulug’ rus shoiri A.S.Pushkin o’limining yuz yilligi va kutubxona tashkil topganiga 25 yil to’lishi munosabati bilan bu kutubxonaga A.S.Pushkin nomi va davlat kutubxonasi maqomi berildi.

Kutubxona 2006-yildan e’tiboran AKM, ya’ni Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi sifatida qayta tashkil etildi. Kitob fondi elektron shaklga o’tkazila boshlandi, foydalanuvchilar kompyuterlardan, elektron katalogdan foydalanish imkoniga ega bo’lishdi. Aynan shu kutubxonada Germaniya hukumatining qo’llab-quvvatlashi va madaniyat ishlari vazirligining hamkorligida 2002-yili nemis o’quv zali ochildi. Nemis o’quv zali fondi nemis tilidagi 2246 kitobdan, audio va videokassetalardan, CD, DVD va turli xil jurnallardan iborat hisoblanadi.

### **Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi**

1921-yil 20-iyunda Buxoro Respublikasi Maorif vaziri Musojon Saidjonov tashabbusi bilan Eski Buxoro markaziy shahar kutubxonasi barpo etilgan. Bu kutubxonaning dastlabki fondi 1187 nusxadan iborat edi. 1938-yilda bu kutubxonaga buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nomi berildi va shu yili Eski Buxoro markaziy shahar kutubxonasi Buxoro viloyat kutubxonasiga aylantirildi. XX asrning 90-yillarida bu kutubxonaning kitob fondi 300000 nusxadan iborat bo’lgan. Mustaqillik yillarida kutubxona faoliyatida ijobiy o’zgarishlar kuzatildi. Ya’ni, kutubxonalar doirasi kengaytirildi, kutubxonaga tashriflar soni ko’paydi.

### **Ahmad al-Farg’oni nomidagi Farg’ona viloyat axborot-kutubxona markazi**

O’zbekiston Respublikasining eng qadimgi kutubxonalaridan biri bu-Farg’ona viloyat axborot-kutubxona markazi hisoblanadi. Bu kutubxona 1899-yil iyunda birinchi shahar kutubxonasi ommaviy muzeyining bir bo’limi sifatida ochilgan. Uning dastlabki kitob fondi 853 nusxadan iborat bo’lib, u 200 nafar kitobxonga xizmat ko’rsatgan. Bu kutubxona 1920-yilda shahar kutubxonasi nomini olgan. Keyinchalik 1970-yilda o’rta asrlarda Osiyoning ko’zga ko’ringan qomuschi olimi, astronomi, geografi, matematik Ahmad al-Farg’oni nomi berildi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin kutubxonada turli loyihalar bilan ishlash takomillashdi, o’lkashunoslik ishlariga, viloyat tarixini, til va madaniy merosini o’rganishga kuchli e’tibor qaratila boshlandi.

2006-yilgi Prezidentimiz qarori asosida kutubxonada yangi axborot texnologiyalari, elektron o'quv zali, yoshlar bilan ma'nnaviy va ma'rifiy ishlar bo'limi tashkillashtirildi.

### **Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi**

1907-yil Andijon shahrida ommaviy kutubxona qiroatxonasi faoliyat yuritila boshladi. Uning dastlabki fondi 387 nusxadan iborat bo'lgan. XX asrning 20-yillariga kelib kutubxonada o'n mingga yaqin kitob, gazeta va jurnallar bo'lgan.

1941-yilda Andijon viloyati tashkil topdi. Shu munosabat bilan shahar kutubxonasiga viloyat kutubxonasi maqomi berildi. 1966-yili kutubxona tashkil topganligining 60 yilligi munosabati bilan kutubxonaga buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berildi. 2006-yilgi 381-sonli qarori asosida kutubxona Andijon viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi va davlat hujjatlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarish yo'lida faoliyat yuritmoqda.

### **Nodira nomidagi Namangan viloyat axborot-kutubxona markazi**

1918-yilda kutubxona o'z faoliyatini boshlagan. Unda dastlab 540 nusxa kitob fondi bo'lgan. Shahar markaziy kutubxona sifatida 1927-yildan e'tiboran faoliyat ko'rsatila boshlagan. Keyinchalik bu kutubxona 1941-yilda shahar markaziy kutubxonasida viloyat kutubxonasiga aylantirildi. 1980-yil 19-iyunda kutubxonaga o'zbek shoirasi Mohlaroyim Nodira nomi berildi. 2005-yil 1-oktabrga qadar bo'lgan holatga ko'ra, kutubxonaning kitob fondi – 587,3 ming bosma birlik, kitobxonlar soni 1 1641 kishini tashkil etgan edi. Kutubxonada turli sohalariga oid mingdan ortiq adabiyotlar, gazetalar va jurnallar, shuningdek, audiovisual materiallar qo'lyozma va noyob kitoblar mavjud.

### **Qurban ota Ismoilov nomidagi Xorazm viloyat axborot-kutubxona markazi**

Mamlakitimizdagi yirik ziyo maskanlaridan biri bo'lgan Xorazm viloyat kutubxonasi 1934-yil Urganch shahar xalq maorifi bo'limi qoshida okrug kutub xonasi sifatida bunyod etildi. Bu kutubxonaning dastlabki fondi 5838 nusxadan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu kutubxonaning kitob fondi 16000 nusxaga yetgan va u 1322 nafar kitobxonga xizmat ko'rsatgan. Viloyat kutubxonasi maqomini 1938-yilda olgan. Viloyat kutubxonasi maqomini olgandan keyin tez fursatda (1940-yil) uning kitob fondi 40000 nusxaga yetgan va u 2188 kitobxonga xizmat ko'rsatgan.

### **At-Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi**

Termiz shahar kutubxonasi 1936-yil barpo qilingan. Uning dastlabki kitob fondi 20 ming nusxadan iborat bo'lgan va bir necha kitobxonlarga xizmat ko'rsatgan. 1942-yil 1-yanvarda Surxondaryo viloyat ijroqo'mining buyrug'i bilan Termiz shahar kutubxonasiga Surxondaryo viloyat kutubxonasi maqomi berilgan. Surxondaryo viloyat kutubxonasi At-Termiziy nomi bilan 1991-yildan boshlab atala boshlangan.

### **Saido Nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi**

Bu kutubxona shahar kutubxona sifatida 1943-yil tashkil etilgan. 1964-yildan boshlab viloyat kutubxonasi sifatida faoliyat yurita boshlagan. Uning dastlabki fondi 9 ming nusxdan iborat bo'lgan. Fondni boyitishga jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari jalg qilingan va shu sababli, 1965-yilning boshiga kelib kutubxonada jamlangan kitoblar soni 87520 nusxdan oshib ketgan. XX asrning 70-80-yillarda kutubxonaning moddiy bazasini mustahkamlash borasida ishlar olib borildi va 80-yilda kutubxona 500 ming nusxa kitob saqlash uchun mo'ljallangan uch qavatlari yangi binoga ko'chib o'tdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng kutubxonaga qashqadaryolik mashhur adib Saido Nasafiy nomi berilgan.

### **Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi**

Jizzax viloyati tashkil etilgandan so'ng Jizzax shahridagi ikkinchi kutubxona negizida 1974-yil 2-sentabrda viloyat kutubxonasi ochildi. Dastlabki kitob fondi 12 ming 200 nusxdan iborat bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kutubxona binosi ta'mirlanib, kutubxona texnika vositalari, zamonaviy kompyuterlar, skaner, kseroks, faks bilan ta'minlandi.

### **Abdulla Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat axborot-kutubxona markazi**

1922-yil 27-mayda dastlabki fondi 263,3 ming nusxa bo'lgan, 32 nafar kutubxona xodimlari bilan viloyat birlashgan kutubxonasi barpo qilindi. Navoiy viloyatdagi kutubxonalarning umumiyligi kitob fondi 2005-yilda 1 794 195 nusxaga yetib brogan. Navoiy viloyat universal-ilmiy kutubxonasi 6 ta tarkibiy bo'limdan iborat. Kutubxona 2006-yil Navoiy viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirilgan va kutubxonaga zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositalari bilan ta'minlandi.

Shulardan kelib chiqqan holda, 2006-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga binoan barcha viloyatlardagi kutubxonalarni axborot-kutubxona markazlariga aylantirildi. Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish, takomillashtirish bo'yicha joriy yilning 20-avgust kuni Respublika axborot-kutubxona markazining anjumanlar zalida matbuot anjumani tashkil etildi. Bu anjumanni tashkil qilishdan asosiy maqsad aholini axborot-kommunikatsiya markazlaridakitobxonlarga yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklar bilan tanishtirish, ommalashtirish va kitobxonlarni keng jalg etishdan iborat.

2019-yil 7-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida Respublikamizda 21-may kunini "Kutubxonachilar kuni" deb belgilanishini va kutubxonachilar ko'p yillik halol mehnati va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga qo'ygan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlashni belgilab qo'ydilar.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Z.Sh.Berdiyeva Kutubxonashunoslik (2013)
2. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish (hujjatlar to'plami)
3. kun.uz
4. <https://xabar.uz/iol>